



PANDNOMALARNING PAYDO BO'LISHI

Tursunmurodov Shohruh Uralovich

GFA o'qituvchisi

shohruhtursunmurodov1994@gmail.com

Annotation: Mustaqillikka erishilgach, ming asrlik mumtoz adabiyotimiz namoyandalarining asarlariga metodologik tomondan yangicha, to'g'ri baho berila boshlandi. Mustaqillikkacha sinfiylik prinsiplariga amal qilish talab etilishi natijasida ko'p masalalar o'zining haqqoniy va halol, tarixiy jihatdan to'g'ri talqini hamda yechimini topmagan edi. Ayniqsa, tasavvufiy she'rlar, dostonlarning uzviy qismi bo'lgan hamd, na't, munojot, va tasavvufiy, diniy boblari noto'g'ri talqin qilindi va ular adabiyotshunoslik masalalaridan chetda qolib ketdi. Ushbu maqolada pandnoma dostonlar haqida mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: didaktika, rivoyat, folklor, tarjima, pandnoma, doston o'git, adabiyot.

Dunyo she'riyatida, adabiyotida pand-nasihat ruhidagi asarlar – pandnomalar juda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Bu dastlab barcha adabiyotlar uchun xos bo'lgan. Xususan, Misr adabiyotida "Pxatotep o'gitlari" bizgacha yetib kelgan eng qadimiy pandnoma hisoblanadi. Bundan deyarli ikki yarim ming yil avval beshinchi sulola fir'avni Jadkara Isesidan vazir Pxatotep qariligi tufayli o'rniiga o'z o'g'lini tayinlashni iltimos qiladi va o'g'liga atab o'ttiz yetti nasihatdan iborat mazkur pandnomani yozadi. Unda o'sha davr axloqiy qonun-qoidalari, o'zni tutish, muomala odobi singari muammolar ko'tariladi, axloqiy fazilatlar esa hikmatlar va nasihatlar vositasida targ'ib qilinadi[1,71-72]. Keyinchalik zardushtiylik ta'limoti va uni o'zlarining didaktikasiga asos qilib olgan Yunon didaktikasida bu qarashlar takomiliga yetkazilgan.

Sharq mumtoz adabiyoti didaktikasi uchun asosiy manba esa Qur'oni karim bo'ldi. Unda belgilab berilgan kishilarining yashash tarzi, atrof-muhit bilan munosabati, inson va inson, inson va dunyo, inson va ikki olam masalasi sharq donishmand shoirlari uchun dasturulamal bo'ldi.

Shu jihatdan aytish mumkinki, X asrdayoq Abu Ali ibn Sino Sharq ko'proq nasihat yo'li bilan, G'arb esa hayotni real ko'rsatish orqali kishini tarbiyalashga moyilligini maxsus qayd etib o'tgan edi. Og'zaki va yozma adabiyoti, axloqiy-diniy merosi pand-hikmatga o'ta boyligi uchun ham Sharqni jahonda donishmand deb bilishadi. Shunga qaramay, Sharq, jumladan, o'zbek mumtoz adabiyotini tamoman



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

pand-nasihat ruhida deb tushunish - xato. Sharqda maxsus didaktik adabiyot yuzaga kelgan. Uni, adabiy shakliga ko'ra, quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. Nasriy didaktik asarlar.

Masalan, milodiy IV asrda Hindistonda Sanskrit tilida mashhur "Pantachantra", ya'ni keyinchalik "Kalila va Dimna" nomi bilan mashhur bo'lib ketgan buyuk didaktik asar dunyoga keladi. Uning butun Sharq, qolaversa, jahon adabiyotiga katta ta'siri bor. O'tgan davrlar mobaynida bir necha tillarga tarjima qilingan. Arab ertaklari asosida shakllangan "Ming bir kecha"da ham mohiyatan pandona run ustun turadi. Keyinchalik forsiyda Kaykovusning "Qobusnoma"si yozildi. Garchi XVI asr o'zbek adibi Xojaning (Podshoxoja binni Abdulvahhobxojaning) "Gulzor" hamda "Miftoh ul-adl" ("Adolat kaliti") asarlari ham Sa'diy Sheroziyning "Guliston"i ta'sirida dunyoga kelgan bo'lsa-da, ular sof nasriy yoida bitilgan.

2. Nasriy-she'riy didaktik asarlar.

Sa'diy Sheroziyning bag'oyat mashhur "Guliston" asari aynan shu guruhga mansub. U ham nasriy, ham she'riy, ya'ni aralash yo'lida bitilgan.

Alisher Navoiy ana shu "Guliston" dagi eng yaxshi an'analarni davom ettirib, "Mahbub ul-qulub" asarini nasriy-she'riy shaklni omixta qilib yozdi.

Garchi majoziy timsollar, hayvonlar, asosan, qushlar misolida bitilgan bo'lsa ham, Gulxaniyning "Zarbulmasal"i ham pandona adabiyotning ana shunday nasriy-she'riy, ya'ni aralash turiga kiradi.

3. She'riy didaktik asarlar.

Sharqda faqat nazmiy usulda yaratilgan maxsus didaktik she'riyat ham shakllangan. Aytaylik, o'zbek mumtoz she'riyatida Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Haydar Xorazmiyning Nizomiy Ganjaviy "Maxzan ul-asror"i asosida bitgan "Gulshan ul-asror", Alisher Navoiyning "Xamsa"ga birinchi asar sifatida kiritilgan "Hayrat ul-abror" dostonlari aynan o'zbek pandona (didadaktik) she'riyatining yorqin namunalari hisoblanadi.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostonida ma'naviy fazilatlarning hayotiy hikoya-tasvirlar, mantiqiy tahlil-xulosalar orqali berilishi,

- birinchidan, muallif nuqtayi nazarini tiniq-lashtiradi, uning aynan qanday g'oyani ilgari surayotganini aniq bilib turasiz; -ikkinchidan, bu ta'sirchanlikni oshiradi;

- uchinchidan, ko'tarilgan masala-muammolar bugun uchun ham o'z ahamiyati, ya'ni dolzarbligini yo'qotmaydi[2,112].



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nizomiy Ganjaviy, "Xamsa". Toshkent: "Istiqlol nuri", 2016.
2. Шайх Низомий Ганжавий. "Махзан ул-асрор". Форсийдан Ўзбекистон халқ шоири Жамол Камол таржимаси, 2016.
3. Alisher Navoiy, "Hayrat ul-abror", G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi. Toshkent - 2006
4. Поэзия и проза Древнего Востока. М., ИХЛ, 1973. С. 71-72.
5. O'zbek adabiyoti, 8-sinflar uchun darslik. - B. - 112.